



БУХОРО ДАВЛАТ ТИББИЁТ
ИНСТИТУТИ



ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

3 ЖИЛД, 1/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 3, НОМЕР 1/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 3, ISSUE 1/1



ТОШКЕНТ-2026

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrasida professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida dotsenti, DSc;
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinolaringologiya kafedrasida professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc.
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadulloeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.K. Temirova** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Nevrologiya va bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika kafedrasida assistenti PhD

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrasida professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasida professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **G.S. Xodjiyeva** - Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida dotsenti

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан № С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114, г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacad>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva Z.F., Xidoyatova D.N.	
O`tkir ishemik hurujlar tezligi va ishemik insult rivojlanishi xavfi.....	6
2. Avezov B.B., Sadiyev E.S., Avezova D.B.	
Tajribaviy revmatoidli artritda 12 oylik oq zotsiz kalamushlar periferik limfa tugunlaridagi morfologik o`zgarishlar.....	11
3. Baymuradov R.R., Teshayev Sh.J.	
Temir tanqisligida 6 oylik oq zotsiz kalamushlarda buyrak morfologiyasi.....	16
4. Karimova M.A., Esamuratov A.I.	
Ayollar qin mikrobiotasini baholashning zamonaviy mikrobiologik usullari.....	21
5. Madaminova G.I., Ismailov B.M.	
Tajribaviy gipotireoz chaqirilgan urg`ochi kalamushlardan tug`ilgan avlodda urug`donlarning morfologik xususiyatlari.....	32
6. Majidova N.U., Botirova N.B., Omonov Sh.A., Madjidova Y.N.	
Structural and functional remodeling of skeletal muscle after botulinum therapy in children with cerebral palsy (clinical and physiological study).....	41
7. Matyakubov B.B.	
Bachadon atoniyasi sababli massiv akusherlik qon ketishida onalar o`limini kamaytirish usullari.....	46
8. Narzulaeva U.R.	
Tungi apnoe sindromi etiopatogenezi, klinikasi, zamonavi diagnostika va davolash strategiyalari.....	50
9. Pulatova Sh.H., Shodiqulova G.Z., Kenjaev M.L.	
Diabetik nefropatiyaning yurak yetishmovchiligi bilan birga kechgan patalogiyaning genetik va epigenetik asoslari.....	55
10. Qodirjonov I.Z.	
Implant qo`yishdan avvalgi tayyorgarlik va profilaktika usullarining samaradorlikka ta`siri.....	61
11. Raxmonova G.E., Eshmuradov E.A.	
Jigar exinokokkozini zamonaviy tashxisiga qarashlar (adabiyotlar sharhi).....	66
12. Raxmatov A.A.	
Bolalarda adenoidlar vegetatsiyasi II-darajasini konservativ davolash taktikasi.....	73
13. Sharipova N.S., Jabbarov O.O.	
Clinical and functional characteristics of renal dysfunction in patients with chronic obstructive pulmonary disease in combination with arterial hypertension.....	77
14. Tuxtayeva N.X., Ko`ziboyev S.Q.	
Ko`krak bezi saratonining rivojlanishi hamda kasallikning hozirgi kunda yosharib borishi sabablari.....	83

15. Yusupov A.P., Qo‘ziyev O.J. Immunizatsiya qilingan tajriba quyvon modelida brutsellyoz ta’sirida jigardagi patomorfologik o‘zgarishlar.....	89
16. Yusupov Sh.R., Umirov S.E., Buriyev A.Y., Sadullayev S.E. Surunkali virusli C gepatiti bilan kasallanishning epidemiologik xususiyatlari.....	94
17. Yusupova I.A. O‘smirlarda coxa vara patologiyasini davolashda bajariladigan koreksiyalovchi osteotomiya operatsiyasi.....	100
18. Алимова Н.П., Хасанова Д.А. Возрастные и половые особенности морфометрической организации глоточной миндалины у детей второго периода детства.....	106
19. Асадова Н.Ш., Рахимова Г.Н. Сахарный диабет 2 типа и когнитивные нарушения: обзор современных данных.....	112
20. Бобониязов К.К. Орфанные заболевания генетической природы: современные достижения молекулярной диагностики, терапевтические перспективы и опыт Узбекистана.....	117
21. Жумаев А.Х. Ортопедик стоматологик реабилитация жараёнида кекса ёшли беморларнинг оғиз соғлиғи билан боғлиқ ҳаёт сифатини ОНП-14 сўровномаси орқали динамик баҳолаш.....	121
22. Зарипов Ш.Ш., Султонова Н.А., Зарипова Д.Я. Основные акушерские осложнения связанные с антифосфолипидным синдромом (обзор литературы)	138
23. Зияходжаева Л.У. Объективная оценка формирования двигательных и психоречевых функций у детей с перинатальным поражением головного мозга.....	143
24. Каримов М.М., Каримова Д.К., Абдуллаева У.К., Таджиходжаева Ю.Х., Ешимбетов О. 2025 йилда Ўзбекистон аҳолиси орасида Helicobacter pylori инфекциясининг тарқалиши.....	147




Abdullayeva Zulayho Fazliddinovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston
<https://orcid.org/0009-0005-9279-4657>

Xidoyatova Dilbar Nabiyevena

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston
<https://orcid.org/0000-0002-1036-1577>

O`TKIR ISHEMIK HURUJLAR TEZLIGI VA ISHEMIK INSULT RIVOJLANISHI XAVFI (Adabiyotlar sharxi)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19817877>

Annotatsiya. Bosh miya qon-tomir kasalliklari butun dunyoda eng dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, yuqori o'lim ko'rsatkichi, nogironlik va katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. O'tkir ishemik hurujlar (O'IH) o'zining yuqori prognostik ahamiyati bilan alohida klinik ahamiyatga ega, chunki ishemik insultlarning sezilarli qismi aynan O'IHdan keyin rivojlanadi. Ekstrakranial arteriyalarning, ayniqsa uyqu (karotid) arteriyalarining aterosklerotik shikastlanishlari serebral ishemiya rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Dupleks ultratovush tekshiruv va intima-media qalinligini baholashni o'z ichiga olgan zamonaviy diagnostika usullari tomirlarning qayta tuzilishini erta aniqlash va xavfni stratifikatsiya qilish imkonini beradi. Ushbu ishda O'IHni tashxislash, profilaktika qilish va davolashning zamonaviy yondashuvlari umumlashtirilgan bo'lib, patogenetik geterogenlik, aterosklerotik blyashkalar morfologiyasi hamda qayta serebrovaskulyar hodisalar xavfini kamaytirishga qaratilgan konservativ va jarrohlik aralashuvlarning samaradorligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'tkir ishemik hurujlar, ishemik insult, bosh miya qon-tomir kasalliklari, ateroskleroz, uyqu arteriyasi stenozi, dupleks skanerlash, insult profilaktikasi

Abdullayeva Zulayho Fazliddinovna

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan
<https://orcid.org/0009-0005-9279-4657>

Khidoyatova Dilbar Nabiyevena

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan
<https://orcid.org/0000-0002-1036-1577>

FREQUENCY OF ACUTE ISCHEMIC ATTACKS AND THE RISK OF ISCHEMIC STROKE DEVELOPMENT (LITERATURE REVIEW)

Abstract. Cerebrovascular diseases represent one of the most urgent medical and social problems worldwide, leading to high mortality, disability, and significant economic losses. Transient ischemic attacks (TIAs) are of particular clinical importance due to their strong prognostic value, as a considerable proportion of ischemic strokes are preceded by TIAs. Atherosclerotic lesions of extracranial arteries, especially the carotid arteries, play a key role in the

development of cerebral ischemia. Modern diagnostic methods, including duplex ultrasound scanning and assessment of intima-media thickness, enable early detection of vascular remodeling and risk stratification. This study summarizes current approaches to the diagnosis, prevention, and treatment of TIAs, with emphasis on pathogenetic heterogeneity, plaque morphology, and the effectiveness of conservative and surgical interventions aimed at reducing the risk of recurrent cerebrovascular events.

Keywords: transient ischemic attack, ischemic stroke, cerebrovascular diseases, atherosclerosis, carotid artery stenosis, duplex scanning, stroke prevention

Абдуллаева Зулайхо Фазлидиновна

Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан

<https://orcid.org/0009-0005-9279-4657>

Хидоятова Дилбар Набиевна

Ташкентский Государственный Медицинский Университет, Ташкент, Узбекистан

<https://orcid.org/0000-0002-1036-1577>

ЧАСТОТА ОСТРЫХ ИШЕМИЧЕСКИХ АТАК И РИСК РАЗВИТИЯ ИШЕМИЧЕСКОГО ИНСУЛЬТА (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Аннотация. Цереброваскулярные заболевания представляют собой одну из наиболее актуальных медико-социальных проблем во всем мире, приводя к высокой смертности, инвалидизации и значительным экономическим потерям. Транзиторные ишемические атаки (ТИА) имеют особое клиническое значение в связи с их высокой прогностической ценностью, поскольку значительная часть ишемических инсультов развивается после перенесённых ТИА. Атеросклеротические поражения экстракраниальных артерий, особенно сонных артерий, играют ключевую роль в развитии церебральной ишемии. Современные методы диагностики, включая дуплексное ультразвуковое сканирование и оценку толщины комплекса интима-медиа, позволяют выявлять сосудистое ремоделирование на ранних этапах и проводить стратификацию риска. В работе обобщены современные подходы к диагностике, профилактике и лечению ТИА с акцентом на патогенетическую гетерогенность, морфологию атеросклеротических бляшек и эффективность консервативных и хирургических вмешательств, направленных на снижение риска повторных цереброваскулярных событий.

Ключевые слова: транзиторная ишемическая атака, ишемический инсульт, цереброваскулярные заболевания, атеросклероз, стеноз сонных артерий, дуплексное сканирование, профилактика инсульта

Kirish. Bosh miya qon-tomir kasalliklari butun dunyoda eng dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda va jamiyatga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Ular orasida serebral insult alohida o'rin tutadi, chunki u yuqori o'lim ko'rsatkichi, sezilarli darajadagi nogironlik va bemorlarning ijtimoiy moslashuvining buzilishi bilan tavsiflanadi [1,6]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, insult kattalar orasida nogironlikning yetakchi sababi hisoblanadi. Bosh miya qon aylanishining buzilishi tushunchasi nafaqat insultni, balki tranzitor bosh miya qon aylanishi buzilishlari yoki tranzitor ishemik hujumlarni (O'IH) ham o'z ichiga oladi. MRT ma'lumotlariga asoslanib, O'IH davomiyligi 1 soatdan oshganda bosh miyada barqaror ishemik o'choqlar paydo bo'lishi aniqlangan. Shu sababli, Insultga qarshi Jahon tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, O'IH tashxisi faqat simptomlar davomiyligi 60 daqiqadan oshmagan va to'liq yo'qolgan hollarda qo'yiladi. Aks holda, insult tashxisi qo'yiladi [2]. O'IHlar uzoq vaqt davomida kuniga bir necha bor takrorlanishi mumkin. Ishemik insult bilan kasallangan bemorlarning muhim qismi (20–30%) ilgari O'IHni boshdan kechirgan bo'lib, bu ularning muhim prognostik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [1,3,7]. Ishemik insultlar orasida aterotrombotik, embolik, gemodinamik va lakunar turlari farqlanadi [7]. Ekstrakranial arteriyalarning

shikastlanishiga olib keladigan va serebral ishemiyaga sabab bo'ladigan asosiy omillardan biri aterosklerozdir. Serebral arteriyalarning aterosklerotik shikastlanishlari ishemik bosh miya qon aylanishi buzilishlarining 40–45 % holatlariga sabab bo'ladi [6]. Hozirgi kunda ishemik insultning patogenetik geterogenligi konsepsiyasi shubha uyg'otmaydi va eng ko'p uchraydigan turi (uchdan bir qismidan ortig'i) ekstrakranial, ayniqsa uyqu (karotid) arteriyalarining shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan aterotrombotik turidir. Og'ir stenoz va ichki uyqu arteriyasining okklyuziyalarida insult rivojlanishida gemodinamik mexanizm muhim rol o'ynaydi [6].

Katta va o'rta kalibrli arteriyalarning aterosklerotik shikastlanishlari ishemik insult rivojlanishiga olib keluvchi eng muhim omillardan hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda ultratovush tekshiruv usullarining klinik amaliyotga keng joriy etilishi kasallikning erta bosqichlarida tomirlardagi aterosklerotik o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. Turli tomir havzalarida birgalikda shikastlanishlarning tez-tez uchrashi bemorlarni chuqur tekshirish, aterosklerozni erta aniqlash va o'z vaqtida mos davolashni boshlash zaruratini taqozo etadi, bu esa davolash natijalari va hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Klinik amaliyotda "intima-media kompleksi" (IMK) deb ataluvchi ko'rsatkichni o'lchash usuli qo'llaniladi. Uning qalinligi tomir bo'shlig'ini chegaralovchi intima yuzasi bilan o'rta qavat va adventitsiya orasidagi chegara yuzasi orasidagi masofa sifatida aniqlanadi. Agar ushbu kompleks qalinligi 1 mm dan oshsa, arteriya devoridagi o'zgarishlar aterosklerotik blyashkalar sifatida baholanadi [4,6]. Ateroskleroz tomir tizimini zararlab, oxir-oqibat arteriya ichki qavatining qaytmas strukturaviy qayta qurilishiga olib keladi, bu tomir devorining qalinlashuvi va elastikligini yo'qotishi bilan namoyon bo'ladi. Kasallikning erta bosqichlarida intima-media kompleksini o'rganish va baholash usuli elastiklik va moslashuvchanlikning dastlabki buzilish belgilarini aniqlash imkonini beradi hamda davolashni o'z vaqtida boshlashga yordam beradi. Shu munosabat bilan, hozirgi sharoitda turli tomir havzalarida arteriya devorlarining aterosklerotik o'zgarishlarini tashxislashda kompleks yondashuvni doimiy takomillashtirish zarurati mavjud [4,7]. So'nggi paytgacha blyashka ichiga qon quyilishining nevrologik simptomlar paydo bo'lishidagi roli borasida munozaralar davom etmoqda. Ba'zi mualliflar bunday qon quyilish, ayniqsa yallig'lanish jarayonlari qo'shilganda, klinik simptomlarning xabarchisi hisoblanadi, deb hisoblaydi. Boshqalar esa uni ateroma patogenezi faqat bir bo'g'ini deb bilib, klinika bilan majburiy bog'liq emasligini ta'kidlaydi. Dupleks skanerlash aterosklerotik blyashkalarining patomorfologik xususiyatlari, zararlanishning tashqi konturlari va yara hosil bo'lish belgilarini aniqlash imkonini bergani sababli, arteriya–arteriya emboliyasi rivojlanish xavfini baholashga oid natijalar alohida qiziqish uyg'otadi. Dupleks skanerlash blyashkalar zichligini baholash va ularning tuzilmasidagi notekisliklarni aniqlashda ham informativ hisoblanadi. Serebrovaskulyar kasalliklarni tashxislash muammosi zamonaviy nevrologiyaning asosiy masalalaridan biridir. Ko'p hollarda statsionarlarda KT va MRTning sutkalik mavjudligi jarayonning xarakteri va joylashuvini tez aniqlash imkonini beradi, biroq miya va tomirlarning barcha morfofunktsional o'zgarishlarini to'liq aks ettira olmaydi. Muammoning yana bir jihati reanimatsiya bo'limida bemorlarning qolish muddatini qisqartirish va reabilitatsiya tadbirlarini tezroq boshlash zarurati bilan bog'liq. Noinvaziv, iqtisodiy va portativ usullar majmuasidan foydalanish insultning o'tkir davrida ko'plab diagnostik muammolarni hal etishga yordam beradi. Olingan ma'lumotlar shikastlanish turi hamda funksional va metabolik o'zgarishlar xarakteriga qarab mos maxsus terapiyani tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va amaliy tavsiyalar bilan birga davolash samaradorligini sezilarli oshiradi.

Hozirgi kunda bosh miya qon aylanishi buzilishlarining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi usullari konservativ va jarrohlik usullariga bo'linadi. Ko'plab ko'p markazli randomizatsiyalangan tadqiqotlarda og'ir (60–70 % dan ortiq) uyqu arteriyasi stenoziga ega, O'IH yoki kichik insultni boshdan kechirgan bemorlarda ikkilamchi profilaktika maqsadida jarrohlik yo'li bilan stenozni tuzatish samarali ekanligi isbotlangan [6,7]. Bu ayniqsa dolzarb, chunki qayta ishemik insult xavfi birinchi yil davomida 10–15 % ni tashkil etadi, keyinchalik esa yiliga 5 % ga teng bo'lib, bu umumiy populyatsiyadagi insult chastotasidan 15 martadan ortiqdir. Bugungi kunda turli patogenetik variantdagi O'IH bilan og'irgan bemorlarni keng qamrovli klinik, nevrologik va neyropsixologik tekshiruvdan o'tkazishga bag'ishlangan tadqiqotlar kam. Xususan, brakiosefal

arteriyalarning okklyuzion shikastlanishlarida lokalizatsiya, tarqalish darajasi, aterosklerotik o'zgarishlarning strukturaviy xususiyatlari hamda boshqa xavf omillarini hisobga olgan holda jarrohlik amaliyotlari o'tkazilgan. Barcha jarrohlik aralashuvlari serebral arteriyalar stenozini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ikki turga bo'linadi: karotid endarterektomiya (KE) va KEga muqobil bo'lgan minimal invaziv endovaskulyar aralashuv — stent o'rnatish (Smout J., 2010).

Shunday qilib, aholining tranzitor ishemik hujum simptomlari haqidagi xabardorligining pastligi bemorlarning kech shifoxonaga yotqizilishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa insult rivojlanishiga va davolash samaradorligining pasayishiga olib keladi. Ikkilamchi insult profilaktikasini imkon qadar erta boshlash zarur, chunki O'IHni boshdan kechirgan bemorlarda ishemik insultlarning aksariyati kasallikning dastlabki kunlarida yuzaga keladi. Har bir davolash usuli uchun xavf omillarini yanada chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ushbu choralar dori terapiyasiga samarali muqobil ekanligini inobatga olib, ichki uyqu arteriyasini stentlash, kardioendoskopiya o'tkazilgan bemorlar hamda faqat dori bilan davolanayotgan bemorlarning holatini qiyosiy dinamik o'rganish katta qiziqish uyg'otadi. Qisqa muddatli va uzoq muddatli ta'sirlarni o'rganish zarur. O'tkir ishemik hujum bilan og'rikan bemorlarni davolashdan asosiy maqsad — qayta O'IHlar va insult rivojlanishining oldini olishdir. Ushbu muammoni o'rganish O'IH bilan og'rikan bemorlar uchun zamonaviy diagnostika, profilaktika va davolash usullarini optimal tanlash mezonlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi adabiyotlar sharxi asosida o'tkir ishemik hurujlar bilan og'rikan bemorlarda zamonaviy diagnostika, profilaktika va davolash usullarini tahlil qilish, shuningdek, turli patogenetik mexanizmlar va davolash strategiyalarining samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot adabiyotlar sharxi hamda klinik, nevrologik va instrumental tekshiruvlar natijalarini tahlil qilishga asoslandi. Diagnostika usullari sifatida kompyuter tomografiya, magnit-rezonans tomografiya, brakiosefal arteriyalarning dupleks ultratovush tekshiruvi va intima–media kompleksining qalinligini baholash qo'llanildi. Davolash natijalari konservativ dori terapiyasi hamda jarrohlik usullari — karotid endarterektomiya va endovaskulyar stentlash orqali qiyosiy baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekstrakranial arteriyalarning aterosklerotik shikastlanishlari O'IHlar va ishemik insult rivojlanishida yetakchi omil hisoblanadi. Intima–media qalinligining oshishi va blyashkalarining notekis tuzilmasi qayta serebrovaskulyar hodisalar xavfining yuqoriligi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Og'ir karotid stenozli bemorlarda jarrohlik aralashuvlar dori terapiyasiga nisbatan insult qaytalanish xavfini sezilarli kamaytirdi.

Muhokama. Olingan natijalar ishemik bosh miya qon aylanishi buzilishlarining patogenetik geterogenligini tasdiqlaydi va individual yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Dupleks skanerlash aterosklerotik blyashkalarining morfologik xususiyatlari va embolik xavfini baholashda muhim ahamiyatga ega. O'IHlarni erta aniqlash va ikkilamchi profilaktikani o'z vaqtida boshlash insultning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tranzitor ishemik hurujlarni erta tashxislash va kompleks davolash insult profilaktikasining asosiy omillaridan biridir. Noinvaziv diagnostika usullari, optimal dori terapiyasi va zarurat bo'lganda jarrohlik yoki endovaskulyar aralashuvlarni qo'llash bemorlarning uzoq muddatli prognozini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kelgusida . O'IHlar bilan og'rikan bemorlar uchun davolash usullarini tanlash mezonlarini yanada aniqlashtirish maqsadida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Adabiyotlar

1. Gusev E.I., Martynov M.Yu. Ishemik insultni davolash va profilaktika qilish — yutuqlar va istiqbollar. Nevrologiyadagi shoshilinch holatlar to'plamida.
2. G'afurov B.G. Nevrologiya bo'yicha klinik ma'ruzalar, 2016, 160-bet.
3. Skvortsova V.I., Staxovskaya L.V. Insult profilaktikasiga zamonaviy yondashuvlar. "Hayot sifati" jurnali, №4 (7), 2004.

4. Vereshchagin N.V., Morgunov, Gulevskaya T.S. Ateroskleroz va arterial gipertenziyada bosh miya patologiyasi. Moskva, 1997, 228-bet.
5. Xidoyatova D.N., Abdullaeva M.B. Ishemik insultning ikkilamchi profilaktikasi. Moskva, 2023.
6. Skvortsova V.I., Shamalov G.A. Karotid stenozli bemorlarni olib borishda zamonaviy yondashuvlar. Consilium Medicum, 2007, 9-jild, 8-son, 11–14-betlar.
7. Padabed D.A. Uyqu arteriyalarida rekonstruktiv operatsiyalar o'tkazilgan bemorlarda kognitiv funksiyalar holatini baholash. Tibbiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi, Chelyabinsk, 2008, 117-bet.
8. Abdullaev, Z., M. Bakhrarov, and Y. Madjidova. "The ratio of risk factors for the development of stroke in uzbekistan according to res-q." international journal of stroke. Vol. 17. No. 3_ suppl. 1 olivers yard, 55 city road, london ec1y 1sp, england: sage publications ltd, 2022.
9. Нарушение мозгового кровообращения при окклюзирующих поражениях сонных артерий / Ё. Маджидова, Д. Хидоятова, Д. Ходжаева, [и др.]. – Неврология. – 2023. – № 2. – С. 82-85.
10. Маджидова, Я.Н., Максудова, Х.Н., Бахрамов, М.С., Бахриев, Б.Р., Ходжиакбарова, Ш.Т., Хусенова, Н.Т., Эргашева, Н.О., Хидоятова, Д.Н., Даминова, Ш. and Бегимкулов, Ф.И., 2022. Изучение эффективности комплексных упражнений у пациентов в остром и раннем восстановительном периоде инсульта. Conferencea, pp.85-88.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году
Бухарским государственным
медицинским институтом
Выходит один раз в 3 месяца
Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт